

artel

Ishonchli va barakali™

UZ

GRAND INVERTER

SOVUTKICH



FOYDALANUVCHINING QO'LLANMASI

HD-360FWEN

HD-395FWEN

HD-430RWEN**

HD-455RWEN**



+998 78 148-88-88



@artelelectronics



■ NO FROST MAISHIY SOVUTGICHLAR
■ MUNDARIJA

Xavfsizlik talablari.....	4
Foydalanish bo'yicha umumiy qoidalar.....	5
Mahsulot tavsifi, modeli, ishlash xususiyatlari.....	8
Ishlash prinsipi (sozlash va boshqarish).....	11
Tashish, qadoqlash, yuklash va saqlash	
Ishga tushirish	
Texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash.....	20
a) Elektr tarmog'iga ulash	
b) Elektrik sxemasi	
Nosozliklar va ularni bartaraf qilish usullari.....	25


Hurmatli xaridor!

ARTEL sovutgichlarini sotib olganingiz uchun minnatdorchilik bildiramiz. Biz Sizga funksional va dizayn jihatidan ishlangan, mahsulot sifatiga qo'yilgan yuqori talablarga mos ishlab chiqarilgan mahsulot taklif etishdan mamnunmiz.

Ishonamizki, **ARTEL** kompaniyasi mahsulotlarini sotib olganingizdan xursand bo'lasiz.

Iltilimos, foydalanishdan oldin mazkur yo'riqnomani diqqat bilan o'qib chiqing. Unda maishiy sovutgichlardan xavfsiz foydalanish va uni saqlash yuzasidan muhim ko'rsatmalar o'rin olgan. Ushbu "Foydalanish bo'yicha qo'llanma"ni ehtiyotlik bilan saqlang.

Quyida ko'rsatilgan shartli belgilar bo'yicha muhim ko'rsatmalar:


Iste'molchilarning sog'lig'ini xavf ostiga qo'ymaslik maqsadida qoidalarga rioya qilgan holda amalga oshirilishi kerak bo'lgan ishlar .



Sovutgichning buzilishini oldini olish uchun amalga oshirilishi kerak bo'lgan ishlar.



Sovutgichlarni ishlatish bilan bog'liq bo'lgan foydali ma'lumotlar va maslahatlar.

** Yulduzcha(lar) variantlarini bildirib, (0-9) yoki (A-Z) orasida bo'ladi.

■ XAVFSIZLIK TALABLARI.



Sovutgich elektr toki ta'siridan himoyalaniş toifasi 1- toifaga asosan tayyorlangan, shu bois sovutgichdan foydalanganda quyidagi elektr xavfsizligi qoidalariga rioya qiling:

- sovutgichni manbaaga ulashdan oldin uning sozligini, elektr o'tkazgich simining himoya qobig'i butligini tekshiring;
 - sovutgich korpusiga tok o'tkazish qismlarning tegishi kuzatilsa, sovutgichni o'chiring va kamchilikni bartaraf qilish uchun mutaxassisni chaqirtiring;
 - bir vaqtning o'zida sovutgichga va tabiiy yerga ulanishi mavjud bo'lgan qurilmalarga (gaz plitasi, isitish radiatori, suv quvurlari va h.k.) teginmang;
 - sovutgichni yuvishda, uning pol qismini artishda, kamchiliklarni bartaraf etishda sovutgichni o'chirib, uning vilkasini manbadan uzib qo'ying.
- Quyidagi sharoitlarda sovutgichni ishlatish taqiqlanadi:
- o'ta yuqori namlik (xona devori va shiftlari namlik bilan qoplangan bo'lsa), tok o'tkazuvchi chang;
 - kimyoviy aktiv muhitda (tok o'tkazuvchi qismlarni yemiruvchi parlarni doimiy yoki uzoq muddat mavjud bo'lishi);
 - tok o'tkazuvchi polda (metall, tuproqli, temirbetonli).

Yong'in xavfsizligini ta'minlash maqsadida sovutgichga quvvati 2 W dan yuqori bo'lgan yoritish lampalarini o'rnatish taqiqlanadi.



Sovutgichning sovutish tizimida sovutuvchi agent IZOBUTAN (R600a) mavjud.

DIQQAT! Sovutish tizimning germetikligini saqlang.

Sovutgichning foydalanish yo'riqnomasida ko'rsatilmagan buyumlar yordamida muzlatgichda hosil bo'lgan muz sathini ko'chirmang.

Sovutgich ichida elektr qurilmalardan foydalanmang.



DIQQAT! Sovutish tizimi shikastlanganda, xonani to'liq shamollatish zarur va sovutgich atrofida ochiq olov paydo bo'lishiga yo'l qo'ymaslik kerak, chunki Izobutan tez alanganuvchi gaz.

DIQQAT! Sovutgichni tez alanganuvchi va yong'in tarqatuvchi buyum va jismlarga (parda, lak, bo'yoqlar va boshqa.) yaqin joylashtirmang.

Sovutgichning mebelga, ichki sathga yopishtirilishi natijasida orqa devori bilan xona devori orasidagi oralqini to'sib qo'yish **TAQIQLANADI**.

Yong'in xavfsizligini ta'minlash maqsadida quyidagilar **TAQIQLANADI**:

- tok kuchlanishidan himoyasi nosoz bo'lgan elektr tarmog'iga sovutgichni ulash. Elektr tarmog'ida 10 A ga mo'ljallangan himoya qurilmasi mavjud bo'lishi kerak;
- sovutgichni ulashda, tabiiy yerga ulanishi bo'lmagan rozetkadan foydalanish;
- sovutgichni elektr tarmog'iga ulashda, qo'shimcha qurilmalardan, ko'p o'rinli rozetkalardan (ikki va undan ortiq o'rinli ulanishli) foydalanish;

- sovutgichda yaxshi berkitilmagan idishlarda kuchli spirtli ichimliklarni (spirt miqdori 40% va yuqori) saqlash;
- sovutgichda portlovchi moddalarni saqlash;
- muzlatgichda yaxlovchi suyuqliklarni shisha idishlarda saqlash;
- kompressordagi erigan suvni to'plovchi idish mavjud bo'lmasa sovutgichni ekspluatatsiya qilish;
- sovutgich ustiga boshqa elektr qurilmalarni o'rnatish (masalan, mikroto'lqinli pech, toster va h.k.) hamda suyuqlik idishlar, xona o'simliklari (elektr o'tkazish qismlariga namlik tushishi).

■ FOYDALANISH BO'YICHA UMUMIY QOIDALAR

! Ikki kamerali maishiy sovutgichlar (keyingi o'rinlarda matnda – sovutgich) mahsulotlarni sovutilgan va muzlatilgan holatda saqlash, oziq-ovqat muzini tayyorlash hamda ichimliklarni sovutish uchun mo'ljallangan.

Sovutgichni ishlatishda atrof-muhit harorati +16°C dan +38°C gacha bo'lishi talab etiladi. Sovutgich chastotasi 50 Hz o'zgaruvchan tok va kuchlanishi 220(±10%) V bo'lgan manbada ishlaydi.

Sovutgichni harid qilishda uning ishlashini, 3-bo'limdagi jadvalga muvofiq butligini hamda unda mexanik shikastlar yo'qligini sotuvchi ishtirokida tekshirib oling.

Sovutgich sotilgandan keyin ishlab chiqaruvchi undagi mexanik shikastlar va uning butligi yuzasidan e'tirozlarni qabul qilmaydi.

Sovutgichlar quyidagi qulayliklarga ega:

- tokchalarni turli balandlikda o'rnatish imkoni;
- erigan suvni sovutgichdan tashqariga chiqib ketishi;
- sovutish va muzlatish kameralarini avtomatik tarzda eritish;
- sovutish va muzlatish bo'limlarining kengligi.

STOP **Diqqat:** Sovutgich kafolat talonida mahsulot sotilgan sana va savdo tashkiloti muhri qo'yilishini talab qiling.

Sovutgich tuzilishi doimiy ravishda takomillashib boradi, shu bois ushbu yo'riqnomada ko'rsatilmagan o'zgarishlar bo'lishi mumkin. Sovutgich qismlarining joylashishi 3-bo'limda keltirilgan.

Sovutgich qadog'ini oching va uni transportirovka qutisidan chiqaring. Sovutgich uchun poydevor bo'lib xizmat qiluvchi qo'shimcha taglikni (4-rasm) olib tashlang. O'rnatuvchi tirgak yordamida sovutgichni polga mustahkam o'rnatilishini ta'minlang, bunda yuqori sathi gorizontol holatda bo'lishi kerak.

Sovutgich eshigi mustaqil ravishda, sizning yordamingizsiz yopilishi uchun o'rnatuvchi tirgak yordamida (1-rasm) sovutgichni orqa tomonga (5-7mm) qiyalikda joylashtiring.

Sovutgichni ishlatishdan avval ichki va tashqi tomonini sovun yordamida iliq suvda yuving, quruq qilib arting va eshigini ochib bir soat davomida shamollating.

Sovutgichni issiqlik manbalaridan uzoqroqda, quyosh nurlari tushmaydigan joyga o'rnatish (2-rasm).



2 rasm



Sovutgichni ishga tushirishdan oldin uning eshigini ochgan holda kamida 12 soat davomida xona haroratida saqlang. Xona haroratida ushlab turilmagan sovutgichni darhol ishga tushirish motor kompressorni buzilishi va sovutish tizimiga moy haydalishi mumkin. Bu esa sovutgichni ishdan chiqishiga olib keladi.

Sovutgichlarda ehtiyojga ko'ra eshiklar ochilishi holatini qarama-qarshi holatga o'zgartirish mumkin. Bu jarayon 1- ilovada ko'rsatilgan.

Sovutgich rozetkaga shtepselli vilka orqali ulanadi. Sovutgichni tarmoqqa ulashdan avval, manbaadagi kuchlanish, sovutgichning ichki qismiga biriktirilgan yorliqda keltirilgan kuchlanishga muvofiqligini tekshirish zarur.

Sovutgichda Issiqlik o'tkazmaydigan material, poliuretan ko'pik ishlatiladi. U qisqarish xususiyatiga ega. Sovutgich yuzasidagi kichik nosimmetriklar, shu poliuretan ko'pikining qisqarishi natijasida yuzaga kelishi mumkun. Bu hol sovutgich ishlashiga ta'sir qilmaydi va issiqlik izolyatsiyasini buzmaydi.



Mahsulotlarni saqlash.

0°C dan yuqori haroratda saqlanishi kerak bo'lgan yangi mahsulotlarni sovutish kamerasiga joylashtiring.

Yodingizda tuting, muzlatgichdan pastda joylashgan bo'limdagi harorat, sovutish kamerasi quyi qismidagi haroratdan past, shu bois tez ayniydigan mahsulotlarni yuqoriga joylashtirishingizni maslahat beramiz. (HD-430RWEN** va HD-455RWEN** modellarda aksincha). Sovutgichda harorat rejimi elektron tablo yordamida avtomatik boshqariladi 1-jadvalda mahsulotlarni taxminiy saqlash muddati keltirilgan.

Mahsulotlar	Saqlanish muddatlari kun hisobida											
	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12
Yangi baliq	■	■	■									
Hom go'sht	■	■	■	■	■							
Go'sht qiymasi	■	■	■	■	■	■	■	■	■	■	■	■
Yog'	■	■	■	■	■	■	■	■	■	■	■	■
Sir	■	■	■	■	■	■	■	■	■	■	■	■
Sut, qaymoq	■	■	■	■	■	■	■	■	■	■	■	■
Tuxum	■	■	■	■	■	■	■	■	■	■	■	■
Meva, sabzavotlar	■	■	■	■	■	■	■	■	■	■	■	■
	Ta'mining sifati buzilmagan xolda											
	Ta'mining sifatinı qoniqarli darajada saqlash											

Muzlatilgan holatda uzoq muddat saqlashga mo'ljallangan mahsulotlarni, avvalo polietilen sellofanga yoki alyumin zarga o'rab, muzlatgichga joylashtiring.

Qadoqlanmagan mahsulotlarni hamda o'tkir hidli yoki o'ziga hid oluvchi mahsulotlarni sellofanga, polietilen sellofanga yoki alyumin zarga o'rab saqlang. Yoqimsiz hidlarni paydo bo'lishini oldini olish maqsadida dori vositalarini germetik qadoqsiz saqlash taqiqlanadi.




Suyuqliklarni ochiq idishlarda qadoqlanmagan holda saqlash muzlatgich eshigini terlashiga va sovutgichning ishlash prinsipini yomonlashishiga olib keladi.


Sovutgichni devordan alohida ajratgan holda joylashtirishda devor va sovutgich o'rtasidagi masofa 50 mm dan kam bo'lmasligi lozim. Bu sovutgichdan ajralib chiqayotgan havo oqimi yo'nalishining to'g'ri harakatlanishiga xizmat qiladi (3-rasm).




1-rasm



4-rasm









3-rasm



MAHSULOT TAVSIFI, MODELI, ISHLASH XUSUSIYATLARI

Texnik ko'rsatkichlar

2-jadval

Texnik tasnif / Modellar	ARTEL HD-360FWEN	ARTEL HD-395FWEN	ARTEL HD-430RWEN**	ARTEL HD-455RWEN**
Sovutgich kamerasi harorati, °C	0 dan + 8 gacha	0 dan + 8 gacha	0 dan + 8 gacha	0 dan + 8 gacha
Muzlatgich kamerasi harorati, °C	-18	-18	-18	-18
Maishiy sovutgich turi	*{***}II tur, muzlatgichli sovutgich			
Nominal iste'mol quvvati, Vt	65	80	67	70
Mustaqil eritish tizimi (No Frost)	Mavjud	Mavjud	Mavjud	Mavjud
Iqlim tasnifi	ST, N	ST, N	ST, N	ST, N
Tokdan himoyalash toifasi	I	I	I	I
Muzlatgich kamerasida (ozliq-ovqat) harorati ko'tarilishi uchun nominal vaqt, soat	11			
Umumiy hajmi, (L)	278	305	330	350
Sovutilgan mahsulotlar saqlash bo'limi hajmi (L)	218	245	232	252
Muzlatilgan mahsulotlar saqlash bo'limi hajmi (L)		60	60	98
		5	5	--
Nominal tok kuchlanishi va chastotasi (V, Hz)	220-240, 50	220-240, 50	220-240, 50	220-240, 50
To'liq kirish quvvati, (Amper)	N : 1 ST : 1	N : 1 ST : 1	N : 1 ST : 1	N : 1 ST : 1
Yoritgich chirog'ining quvvati, (Vt)	LED 1.1	LED 1.1	LED 1.1	LED 1.1
Energiya samaradorlik sinfi	A+	A+	A+	A+
Yillik energiya istemoli, (kVt*soat/yil)	252	262	286	293
Mahsulot muzlatish quvvati, (Kg/24soat)	2.7	3	4.5	4.5
Eng sovuq bo'limini tamg'alash belgisi				
Sovituvchi agent turi	R600a	R600a	R600a	R600a
Korreksiyalangan shovqin quvvatini pog'onasi, (dB)	37	37	37	37
Vazni qadoq bilan, (kg)	56.5	58.5	72	73.5
Vazni qadoqsiz, (kg)	52	54	67	68
Tashqi o'lchamlari qadoq bilan (ExChxB), (mm)	666*724*1555	666*724*1670	666*724*1935	666*724*2016
Tashqi o'lchamlari qadoqsiz (ExChxB), (mm)	595*676*1490	595*676*1608	595*676*1858	595*676*1940

Sovutgich butlovchi qismlarining jamlanishi 4 va 5 jadvallarda keltirilgan. 4-jadval*

Modeli	HD-360FWEN	HD-395FWEN
Tarkibiy qismlar		
Muzlatish kamerasi tokchasi	1	1
Muz qoliplar uchun jamlanma (ledogenerator)	1	1
Muzlatgich kamerasi eshigining tokchasi	2	2
Sabzavot va mevalar savati oynali qopqog'i	1	1
Tokcha katta	1	1
Tokcha o'rtacha	-	1
Tokcha kichik	2	2
Quti (sabzavot va mevalar uchun)	1	1
Sovutgich kamerasi katta oynali tokcha	2	2
Tuxum uchun savatcha	2	2
Uzoq muddat saqlashga mo'ljallangan tokcha	1	1
Foydalanish bo'yicha qo'llanma	1	1


5-jadval*

Modeli	HD-430RWEN**	HD-455RWEN**
Tarkibiy qismlar		
Muzlatgich kamerasi oynali tokchasi	1	1
Muzlatish va saqlash uchun quti	3	3
Sovutgich kamerasi katta oynali tokcha	3	3
Sabzavot va mevalar savati oynali qopqog'i	1	1
Tokcha katta	1	1
Tokcha o'rtacha	1	1
Tokcha kichik	2	2
Quti (sabzavot va mevalar uchun)	1	1
Eshikning qo'shimcha qismlari	2	2
Tuxum uchun savatcha	2	2
Muz qolipi	1	1
Foydalanish bo'yicha qo'llanma	1	1
Tokcha (ichimliklar uchun)	1	1

* - Sovutgich tuzilishi doimiy ravishda takomillashib boradi, shuning uchun ayrim o'zgarishlar bo'lishi mumkin.

Sovutgich qismlarining joylashishi

5-rasm



- 1 - Muzlatgich kamerasidagi tokcha;
- 2 - Tokcha o'rtacha;
- 3 - Tokcha kichik;
- 4 - Tokcha katta;
- 5 - Muz qoliplar uchun jamlanma (ledogenerator);
- 6 - Muzlatgich kamerasi tokchasi;
- 7 - Uzoq muddat saqlashga mo'ljallangan tokcha;
- 8 - Chiroq o'chirgich;
- 9 - O'rnatuvchi tirgak;
- 10 - Sovutgich kamerasi oynali tokcha;
- 11 - Sabzavot va mevalar savati oynali qopqog'i;
- 12 - Quti (sabzavot va mevalar uchun);
- 13 - Muzlatish va saqlash uchun quti;
- 14 - Muzlatgich kamerasi oynali tokchasi.
- 15 - Tokcha (ichimliklar uchun)

* - Sovutgich tuzilishi doimiy ravishda takomillashib boradi, shuning uchun ayrim o'zgarishlar bo'lishi mumkin.



■ ISHLASH PRINSIPI

Boshqaruv displeyidan foydalanish.



1. Belgilar

A: Tez sovutish belgisi; B: Tez muzlatish belgisi; C: Qulflash va qulfdan chiqarish belgisi; D: Ta'til belgisi; E: Tejamkorlikni boshqarish belgisi; Q: Ogohlantiruvchi signal belgisi.



Temp. control

2. Display

1: Sovutgich kamerasining harorati; 2: Muzlatgich kamerasining harorati; 3: Sovutgich kamerasining belgisi; 4: Muzlatgich kamerasining belgisi; 5: Eng sovuq bo'limini tamg'lash belgisi; 6: Sovutish kamerasini boshqarish tugmasi; 7: Muzlatish kamerasini boshqarish tugmasi; 8: Tez sovutish rejimini boshqarish tugmasi; 9: Tez muzlatish rejimini boshqarish tugmasi; 10: Energiyani saqlash rejimini boshqarish tugmasi; 11: Ta'til rejimini boshqarish tugmasi; 12: Qulflash va qulfdan chiqarish tugmasi.

3. Sovutgich kamerasi (FRIDGE)

Sovutgichdagi haroratni 1°C dan 7 °C gacha bo'lgan diapazonda o'rnatish uchun "FRIDGE" (🔧) tugmachasini bosing. Avtomat tarzda o'rnatilgan harorat ko'rsatgichi 5 °C ga teng bo'lib, "FRIDGE" tugmachasi har safar bosilganda, harorat quyidagi tartibda o'zgaradi, harorat indikatorini esa siz istagan haroratni aks ettiradi.



4. Muzlatgich kamerasi (FREEZER)

Muzlatgich kamerasidagi haroratni -15 °C dan -23 °C gacha diapazonda o'rnatish uchun "FREEZER" (❄️) tugmachasini bosing. Avtomat tarzda o'rnatiladigan harorat ko'rsatgichi -19 °C ga teng bo'lib, "FREEZER" tugmachasi har safar bosilganida, harorat quyidagi tartibda o'zgaradi, harorat indikatorini esa siz istagan haroratni aks ettiradi.



5. Super cool (tez sovutish) rejimi

Tez sovutish rejimini yoqish uchun **Super cool** tugmachasini bosing. Displayda **Super cool** indikatorini (❄️) yonadi. Ushbu rejimda sovutgich kamerasidagi haroratni 8 soat davomida +1 °C ±1 darajagacha oraliqda bo'ladi. Sovutgich kamerasi 8 soatdan keyin avtomat tarzda **Tez sovush** rejimidan chiqadi va harorat ko'rsatgichi 5 °C ga tushadi. Ushbu rejimda muzlatish kamerasi harorati o'zgarishsiz qoladi. **Super cool** rejimini behosdan faollashtirilgan holatda, standart rejimga o'tish uchun **FRIDGE** tugmasini qayta bosish tavsiya qilinadi.

6. Super freezer (tez muzlatish) rejimi


Tez muzlatish rejimini yoqish uchun **Super freezer** tugmachasini bosing. Displayda **Super freezer** indikatorini (❄️) yonadi. Ushbu rejimda muzlatgich kamerasidagi harorat 24 soat mobaynida -25 °C darajagacha (muzlaydi) chiqadi va bu ko'proq iste'mol muzini tayyorlash uchun xizmat qiladi. Muzlatgich kamerasi 24 soatdan keyin buyurilgan haroratga etganda, avtomat tarzda Tez muzlatish rejimidan chiqadi va harorat ko'rsatgichi -19 °C ga tushadi. Ushbu rejim ishlagan davrda elektr energiya sarfi ham oshadi. **Super freezer** rejimini behosdan faollashtirilgan holatda, standart rejimga o'tish uchun **FREEZER** tugmasini qayta bosish tavsiya qilinadi.

7. Energiyani saqlash (ECO) rejimini ishga tushirish va o'chirish.



Energiyani saqlash rejimini tanlash uchun "ECO" tugmasini bosing va energiyani saqlash rejimiga o'ting. Displayda "ECO" indikatorini (🌱) yonadi. "ECO" rejimi vaqtida sovutgich va muzlatgich haroratini chegaralaydi yani sovutgich kamerasidagi harorat +6 °C tashkil qilsa, muzlatgich kamerasidagi harorat -16 °C tashkil qiladi. "ECO" rejimi siz uzoq safarga yoki uyda bo'lmagan davrlarda elektr energiya sarfini kamaytirish uchun xizmat qiladi.

"ECO" rejimini o'chirish uchun "FRIDGE" va "FREEZER" bir vaqtda bosish yo'li bilan amalga oshiriladi.

8. TA`TIL (VACATION) rejimini ishga tushirish


Ta`til rejimini tanlash uchun **“VACATION”** tugmasini bosib va ta`til rejimiga oting. Displayda **“VACATION”** indikatorini () yonadi. Ushbu rejim siz uzoq muddatga ta`tilga yoki xizmat safariga jo`nab ketganingizda va sovutgichdan foydalanish zarurati bo`lmaganida energiya iste`molini minimal darajada kamaytirish uchun xizmat qiladi. Vacation funksiyasi aktivlashtirilganda muzlatish kamerasi ishlab turadi. Ushbu rejim yoqilgan paytda sovutgich kamerasida harorat bir meyorda +15 °C, muzlatgich kamerasida esa -17 °C darajaga tushirishni ta`minlaydi. Ushbu rejimni uzoq vaqt uyda bo`lmagan paytda ishlatish tavsiya qilinadi. **TA`TIL (VACATION)** rejimini behosdan faollashtirilgan holatda, standart rejimga o`tish uchun **FRIDGE** yoki **FREEZER** tugmasini qayta bosish tavsiya qilinadi.

9. Qulflash va qulfdan chiqarish funksiyasi

Ushbu funksiyasini yoqish uchun bir vaqtning o`zida **“ECO”** va **“VACATION”** tugmalarini 1 soniya ushlab tursangiz displey qulflanadi. Displayda qulf indikatorini () yonadi va hech bir tugma ishlamaydi. Displeyni qulfdan chiqarish uchun bir vaqtning o`zida **“ECO”** va **“VACATION”** tugmalarini 3 soniya ushlab tursangiz displey qulfdan chiqadi. Displayda qulf indikatorini () qulfsizlanadi.

Amallar bajarilgandan so`ng displey chirog`i 30 soniyadan so`ng faolsizlanadi. Displeyni qayta faollashtirish uchun istalgan tugmani bosish kifoya.

10. Eshikni boshqarish

Sovutish kamera eshigini ochgan vaqtda displey va sovutgich ichki chirogi yonib turadi. Sovutgich eshigini har ochganda signal chalinmaydi. Agar sovutish kamerasi to`liq yopilmasa yoki 2 daqiqadan ortiq vaqt davomida ochiq qoldirilsa displeyda **“BUZZER”** ogohlantiruv indikatorini () yonadi, tizim bu haqida signal orqali ogohlantiradi. Eshik yopilgach signal o`chadi.

11. Sovutgich displeyidagi 3 yulduzchali belgi ()

Ushbu belgi sovutgichdagi muzlatish darajasi -18°C va undan past harorat darajaga ko`tariladi. Bu esa ba`zi mahsulot turlarini bir yilgacha saqlash imkonini beradi. Har bir yulduzcha (*) -6°C darajani anglatadi.

12. Nosozliklar to`grisida xabar

Displayda **E1-EH** belgilari aks ettirilsa, sovutgich ishlashida nosozliklar mavjudligidan xabar beradi. Ba`zi nosozliklar holatida qurilma ishlashni davom ettirishi mumkin, biroq ta`mirlash ishlarini tezda amalga oshirish lozim bo`ladi. (HD-430RWEN+ va HD-455RWEN+ modellari uchun)

Xabar	E 1	E 2	E 3	E 4	E 5	E 6	E 7	E H
Nosozliklar	Muzlatish kamerasi harorat sensori	Sovutish kamerasi harorat sensori	Muzlatish kamerasi eritish sensori	Tashqi muhit sensori	Eritish sistemasida nosozlik	Displayda nosozlik	Ventilyatorda nosozlik	Muzlatish kamerasida harorat yuqori

! Iste'mol muzini tayyorlash.

Muz qolipini o'zingizga tortgan holda chiqarib oling. Qolipga to'lishiga 4-5 mm qolungacha ichimlik suvi quyung. Ehtiyot bo'lib suvni to'kib yubormagan holda qolipni yana ushlagichga qaytib qo'ying. Muz tayyorlanadi. Muz kubiklari, qolipdan xona haroratida 5-6 daqiqa turgandan so'ng ajraladi.



Qolip ostida savatcha borligiga ishonch hosil qiling. Agar bo'lmasa uni o'rnatning. Qolip aylanishni boshlamaguncha ruchkalardan birini soat mili yo'nalishi bo'yicha burang. Natijada muz kubiklari savatchaga tushadi. Agar zarur bo'lsa qolipning ikkinchi yarmi uchun ushbu ketma-ketlikni takrorlang. Muz savatchani chiqarib olish uchun quyidagi harakatni bajaring.

- Uni ko'taring
- O'zingizga torting



Hech qachon suyuqlik solingan shisha butikalarni muzlatish kamerasiga qo'ymang, negaki undagi suyuqlik muzlaganda shisha yorilib ketishi mumkin.



Agar uzoq muddat davomida uyda bo'lmaydigan bo'lsangiz sovutgichni mahsulotlardan bo'shating va uni o'chiring. Sovutgich ichidagi namlikni ho'lni artib tashlang va eshikni ochiq qoldiring. Bu yoqimsiz hid va mog'or hosil bo'lishini oldini olishga yordam beradi. Agar sovutgich uzoq vaqt foydalanilmaydigan bo'lsa quvvat simi vilkasini rozetkadan sug'iring.

Muzlatish kamerasida ko'proq joy ochish uchun jihozni hech qanday asbop uskuna yordamisiz olib qo'yish mumkin bo'lgan qo'shimcha elementlarni olib qo'yish mumkin, masalan, polkalar, muz tayyorlash uchun aylanuvchi qolip, muz savatchalari va ularni ko'tarib turuvchi elementlar. Sovutgichning harorat va mexanik xarakteristikalariga bu ta'sir ko'rsatmaydi. Ko'rsatilgan muzlatish kamerasi sig'imi undagi barcha jihozlarni chiqarib olib qo'ygandan keyingi sig'im ko'rsatgichidir.


Displayli modellarda signalizatsiya funksiyasi eshik ochiq holatda bo'lganda ishlaydi. Shuningdek muzlatish kamerasi eshigi yopilgan holatda ekanligini ham tekshiring, muzlatish kamerasi eshigi ochiq holatda bo'lganda signal yangramaydi, (displeysiz modellarda ham). Eshiklar yopilgan holatda ekranini tekshiring.

! Sovutgich qismlarini olib qo'yish.

Sovutgich qismlarini yig'ishda sovutgich kamerasi tokchalari, muzlatgich kamerasi tokchalarini muvofiq holatda qo'ying, ularni tepasini pastga qaratib qo'ymang. Bu jarohat yoki qurilmaga zarar yetishiga olib kelishi mumkin.




Muz qolipi va qutini chiqarib oling so'ng muz qolipi tayanchini chiqarib oling.




Muz qolipi tayanchlarini tortib olishda ehtiyot bo'ling, negaki u birdaniga siz tomonga qarab siljib borishi mumkin.

Yig'ish uchun muz qolipi tayanchini o'yiqlar ustiga shunday qo'yinki, o'ng tomon baland bo'lsin. Uning o'rta qismini pastdan ushlab turing, muz qolipi tayanchini o'z joyiga tushgunga qadar itaring.



Muzlatish kamerasi tokchasini ozgina ko'tating va uni oldinga suring, so'ng muz qolipi va qutini chiqarib oling. Muz qolipi tayanchini chiqarib oling.




! Sovutgich tokchalarini o'zingizga torting.




Sovutgich tokchalarini olib qo'yishda, agar eshikni lang ochishni imkoni bo'lsa tokchalarni oldinga torting, biroz ko'tarib so'ng chiqarib oling.

Sovutgich tokchalarini olib qo'yishda, agar eshikni lang ochish mumkin bo'lmasa, tokchalarni oldinga torting, biroz ko'tarib so'ng chiqarib olish uchun ularni qiyaroq qiling. Tokchalarni qayta joyiga qo'yishda "Safety Glass" belgisi bo'lgan tomonini sovutgichning old tarafiga qo'yilganligiga ishonch hosil qiling.

HARORAT NAZORATI



Muzlatgich va sovutgich kamerasida haroratni kafolatlash uchun **OPTIMAL** rejimi sovutgichni barqaror ishlashiga sozlashni tavsiya qilamiz. Agar sovutgichdagi ovqat muzlagan bo'lsa yoki sovutgich haroratni ko'tarmoqchi bo'lsangiz muzlatgich kamera haroratini boshqarish moslamasini chapga suring.



Qishki vaqtda muz hosil qilish uchun muzlatgich kamera haroratini boshqarish moslamasini o'ngga suring.



Yozda (35C dan yuqori) muzlatgich kamera haroratni boshqarish moslamasini **OPTIMAL** rejimiga suring.

MUZLATGICH KAMERA HARORATINI SOZLASH.


! Agar muzlatuvchi kamera haroratini pasaytirmoqchi bo'lsangiz muzlatuvchi kamera haroratini boshqarish moslamasini o'ngga suring.



Agar muzlatgich kamera haroratini ko'tarmoqchi bo'lsangiz muzlatgich kamera haroratini boshqarish moslamasini chapga suring.



Qishki vaqtda muzlatgich kamera haroratini boshqarish moslamasini o'ngga suring.




Aks holda muzlatgich ishlashida muammo paydo bo'lishi mumkin.

Yozda (35C dan yuqori) muz hosil qilish uchun muzlatuvchi kamera haroratini boshqarish moslamasini o'ngga surmang. Aks holda muzlatgichning ishlashida muammo paydo bo'lishi mumkin.

SOVUTGICH KAMERA HARORATINI SOZLASH.

Agar sovutgich siz istaganday sovuq bo'lmasa yoki muzlatgich haroratini pasaytirmoqchi bo'lsangiz sovutgichning haroratni nazorat qilish moslamasini 5-6 ga yoki displey modeli sovutgichlarning haroratni 1 ga qo'ying. Agar sovutgichdagi ovqat muzlab qolgan bo'lsa yoki muzlatgich kamera haroratini ko'tarmoqchi bo'lsangiz sovutgichning haroratni nazorat qilish moslamasini 1-3 ga yoki displey modeli sovutgichlarning haroratni 3-7 ga qo'ying. Qishki vaqtda sovutgichning harorat nazorat qilish moslamasini 1-2 ga yoki displey modeli sovutgichlarning haroratni 3-7 ga qo'ymang.



Temp. control

Yozda (35C dan yuqori) sovutgichning haroratni nazorat qilish moslamasini 4-6 ga yoki display modelli sovutgichlarning haroratni 1-2 ga qo'ying. Aks holda sovutgich ishlashida muammolar paydo bo'lishi mumkin.



ESLATMA: Muzlatgich kamerasi devorlari shikastlanishini oldini olish maqsadida muzni ketkazish yoki muzlagan mahsulotlarni ajratib olishda o'tkir tig'li predmetdan foydalanmang.

Sovutgichda elektr energiya sarfini kamaytirish maqsadida, quyidagilarni maslahat beramiz:

- sovutgichni belgilangan talablarga muvofiq o'rnatishni;
- issiq mahsulotlarni sovutgichga joylashdan oldin, xona haroratigacha sovutishni;
- eshik ochilishlar sonini va davomiyligini kamaytirishni;

Sovutgich uzoq muddat foydalanish uchun mo'ljallangan, shu sababli uni tarmoqdan uzganda shurni u shikastlanmaydigan holda joylashtirish kerak, shundan so'ng uni tozalash mumkin.

Sovutgichni oyiga kamida bir marta tozalab turing.

ESLATMA: Sovutgich ishlaganda kompressor yuzasi 90°C gacha qizishi mumkin. Kompressor ishga tushishi va to'xtashi davomida sovutgich sifati va ish faoliyatiga ta'sir ko'rsatmaydigan shovqin paydo bo'lishi mumkin. Shuningdek sovutgichning ikki yon tomoni sovutgich ishlayotgan vaqtda qiziydi. Bu esa sovutgichning ish faoliyatiga hech qanday ta'sir ko'rsatmaydi.

■ TASHISH, QADOQLASH, YUKLASH VA SAQLASH

Tashish. Sovutgichni tashishda kompressordan yog', ichki qurilmalarga to'kilishini oldini olish maqsadida kompressor, albatta, avtomobil kuzoviga tik holatda mahkamlangan bo'lishi lozim. Agar sovutgichni tik holatda o'rnatishning imkoni bo'lmasa ko'rpus ko'pi bilan 40 daraja qiyalikda joylashtirilishi mumkin.

Sovutgichni mahkamlashda tashish paytida uning ustki qatlami tirnalmaligi uchun metall xalqali maxsus yumshoq arqondan foydalaniladi. Shuningdek, sovutgichni tashishda iqlim xususiyati ham inobatga olinishi kerak, imkon qadar tashish yopiq avtomobilda amalga oshirilishi maqsadga muvofiq.



Sovutgichni gorizontal joylashtirish mumkin emas, uni tik holatda joylashtiring. Bunda quyidagi ko'rsatkich tepaga qaratilgan holatda bo'lishi lozim.



Sovutgich qulab ketmasligi uchun tashish paytida uni qattiq mahkamlang

Qadoqlash. Sovutgichni tashishdan oldin undagi barcha yordamchi jihozlar (tokchalar, qutilar va boshqalarni) ni chiqarib olib, sinchkovlik bilan qadoqlash lozim. Qadoq o'rami sovutgich va transport vositasi turi, qolaversa tashish masofasiga qarab amalga oshiriladi.

Qadoqlashda karton, penoplast, polietilen hamda havo-pufakchali materiallardan foydalanish mumkin. Bo'yalgan sath shikastlanishini oldini olish maqsadida sovutgich ostiga karton yoki qalin mato tashlab qo'yilishi mumkin. Tashish jarayonida sovutgichni chayqalishdan saqlash uchun uning atrofini tayanch pona yoki qistirma bilan chegaralab qo'yish maqsadga muvofiq. Shuningdek, sovutgichning eshigi mahkam yopilganligiga hamda tashish paytida ochilib ketmasligiga ishonch hosil qilinishi mumkin. Buning uchun sovutgich eshigi yumshoq arqon bilan mahkamlanishi kerak.

Yuklash. Sovutgichni avtomobilga yuklash muhim ahamiyatga ega. Sovutgich kompressorlari prujinada osilgan holatda turishini inobatga olib yuklashda silkinish va zarbalarga yo'l qo'yilmasligi kerak. Chunki kompressorga misdan tayyorlangan mo'rt quvurlar o'rnatiladi va ular kuchsiz silkinishda ham shikastlanishi mumkin.



Yuklashda va tushirishda sovutgichning yuza qismi yuqoriga qarab turganligiga ishonch hosil qiling.




Sovutgichni tashishda uni bir o'zingiz ko'tarmang, boshqalar yordamidan foydalaning.

Saqlash. Qadoqlangan sovutgichni yopiq binoda tabiiy shamollatish sharoitida havoning nisbiy namligi 80% dan ko'p bo'lmagan holda saqlash lozim. Agar sovutgich uzoq vaqt davomida ishlatilmasa uni elektr tarmog'idan uzib, undagi barcha mahsulotlarni chiqarib, muzlatish kamerasini eritish hamda sovutgichni tozalash tavsiya etiladi. Tozalash yakunlangandan so'ng kameralarda noxush hid bo'lmasligi uchun sovutgich eshigini biroz ochiq qoldirilishi lozim.



Sovutgichni ikki yoki uch kishi bo'lib ko'tarish lozim hamda uning yuzasi yuqoriga qarab turganligiga ishonch hosil qilinishi kerak.



Agar sovutgichlar yonma-yon joylashtirilgan bo'lsa ularning qulab ketishi yoki boshqa inson shikastlanishini oldini olish maqsadida ular o'zaro mustahkam mahkamlanganiga ishonch hosil qilinishi lozim.

■ ISHGA TUSHIRISH


Elektr tarmog'iga ulash.




Sovutgichni elektr tarmog'iga ulashda, qo'shimcha qurilmalardan, ko'p o'rinli rozetkalardan (ikki va undan ortiq o'rinli ulanishli) foydalanish **TAQIQLANADI**. Bu shurning qizib ketishiga yoki yong'in kelib chiqishiga sabab bo'lishi mumkin.

Sovutgichda maxsus o'chirish tugmasi mavjud emas. Shuning uchun unga elektr ta'minotini nazorat qiluvchi moslama o'rnatilishi maqsadga muvofiq. Mazkur moslama sovutish priborining uzluksiz ishlashini ta'minlaydi. Sovutgichning tarmoq vilkasi elektr tarmog'i rozetkasiga mahkam o'rnatilishi va yerga ulanishi (zazemleniya) mavjud bo'lishi lozim. Tok kuchi va elektr tarmoq manbasi chastotasi ishlab chiqaruvchi o'rnatgan holatda bo'lishi kerak.

Elektr kabel o'tkazishda kabelning xususiyatlari amaldagi qonunchilik me'yorlari (yerga ulanish, ta'minotning qo'shimcha manbalaridan foydalanish, elektr tokini nazorat qilish moslamasini o'rnatish va boshqa)ga muvofiq bo'lishi lozim. Sovutgichni tarmoqqa ulashdan avval, manbaadagi kuchlanish, sovitgichning orqa tomonida biriktirilgan yorliqda keltirilgan kuchlanishga muvofiqligini tekshirish zarur. Yuqorida keltirilganlar bo'yicha savollar tug'ilsa mutaxassisga murojaat qiling.



230 V_~ 50 Hz



■ TEXNIK XIZMAT KO'RSATISH VA TA'MIRLASH




Sovitgichni o'rnatish va ishlatishni noto'g'ri amalga oshirish hamda o'z vaqtida tozalamaslik nosozliklar keltirib chiqarishi mumkin.


Sovitgichdagi nosozliklar hamda uni ta'mirlashga ketadigan ortiqcha xarajatlarning oldini olish uchun quyidagi texnik qoidalarni bilish va ularga amal qilish lozim:

1. Sovitgich o'chirilgandan keyin uni qayta yoqish uchun 5 – 7 daqiqa kutib turing, uni barvaqt yoqish kompressor motori ish faoliyatiga nosozlik keltirib chiqarishi mumkin.
2. Sovitgichni tozalab bo'lgandan so'ng mahsulotlarni darhol joylamang. O'rnatilgan harorat sharoitida ish boshlashini kuting.
3. Termoregulyator ko'rsatkichlarini o'rtachadan yuqori o'rnatmang. Bu to'g'ri emas. Agar termoregulyator ko'rsatkichlari maksimum darajaga qo'yilsa harorat sezilarli darajada tushadi va sovitish agregati yuklamasi ortadi.
4. Sovitgichni tozalashda iliq suvdan foydalanish tavsiya etiladi. Sovitgichni tozalashda yumshoq latta yoki jun matodan foydalanish mumkin. Sovitgichni tozalashda pichoq va boshqa o'tkir jismlardan foydalanish mumkin emas.


■ ELEKTRIK SXEMA. (HD-360FWEN, HD-395FWEN, modellari uchun)



- **ELEKTRIK SXEMA.** (HD-360FWEN**, HD-395FWEN** invertor kompressorli modellari uchun)



- **ELEKTRIK SXEMA.** (HD-430RWEN**, HD-455RWEN** invertor kompressorli modellari uchun)



■ NOSOZLIKLAR VA ULARNI BARTARAF QILISH USULLARI

MUAMMO	YECHIMI
Jihoz umuman ishlamayapti yoki harorat judayam yuqori.	<ul style="list-style-type: none"> • Quvvat simi elektr tarmog‘iga to‘g‘ri ulanganini tekshiring. • Old paneldagi harorat sozlagich to‘g‘ri o‘rnatilganmi? • Jihozga bevosita quyosh nuri tushadimi yoki jihoz yaqinida biror issiqlik chiqaruvchi manba bormi? • Jihozning orqa tomoni devorga yaqin turibdimi?
Sovutgichdagi mahsulotlar muzlab qolgan	<ul style="list-style-type: none"> • Old paneldagi harorat sozlagich eng past haroratga o‘rnatilganmi? • Tevarak atrofdagi harorat judayam past emasmi? • Tarkibida suv miqdori yuqori bo‘lgan mahsulotlarni sovutgichning eng sovuq qismida saqladingizmi?
Sovutgichdan g‘alati shovqin chiqayapti.	<ul style="list-style-type: none"> • Jihoz mustahkam, tekis polga o‘rnatilganligini tekshiring. • Jihozning orqa tomoni devorga yaqin turibdimi? • Jihoz orqa yoki tagiga begona predmetlar tushmaganmi? • Shovqin jihoz kompressoridan chiqayptimi? • Sovutgich ichidan tiqilovchi tovush eshitisli mumkin; bu normal holat. Turli aksessuarlarning siqilishi yoki kengayishi natijasida shunday ovoz chiqadi.
Jihoz old qirralari va yon yuzalari issiq; bug‘ hosil bo‘la boshlayapti.	<ul style="list-style-type: none"> • Jihoz old burchaklarida issiqqa bardoshli trubalar o‘rnatilgan bo‘lib, ular bug‘ hosil bo‘lishini oldini oladi. Tevarak atrofdagi harorat ko‘tarilganda, bu har doim ham samara bermaydi. Shu bilan birga, bu hol normal holat hisoblanmaydi. • O‘ta namchil ob-havoda jihozning tashqi yuzasiga bug‘ hosil bo‘ladi, bu paytda havodagi hamlik jihozning sovuq yuzasi bilan to‘qnashadi.
Muz generatori muz tayyorlamayapti.	<ul style="list-style-type: none"> • Muz tayyorlashni boshlashdan oldin, sovutgichni o‘rnatgandan keyin 12 soat kutdingizmi? • Muz tayyorlashning qo‘l funksiyasini to‘xtatdingizmi? • Muzlatish bo‘lmasi harorat juda yuqorimi? Muzlatish bo‘lmasida pastroq haroratni o‘rnatib ko‘ring. • Suv idishni sug‘a to‘ldirdingizmi? • Suv idishni to‘g‘ri ulanganligini tekshirdingizmi?
Jihoz ichidan qulqullagan tovush eshitaladi.	<ul style="list-style-type: none"> • Bu sovutuvchi agent bo‘lib, jihoz ichida sovutishni amalga oshiradi.
Jihoz ichida yoqimsiz hid bor.	<ul style="list-style-type: none"> • Ichida buzilgan mahsulot bormi? • O‘tkir hidli oziq-ovqat mahsulotlari (masalan, baliq) germetik material bilan o‘ralganligiga ishonch hosil qiling. • Vaqti-vaqti bilan muzlatish bo‘lmasini tozalab turing va barcha buzilgan yoki buzilganga o‘xshagan mahsulotlarni tashlab yuboring.
Jihoz devorlarida qirov qatlami bor.	<ul style="list-style-type: none"> • Sovutgich ichida saqlanayotgan mahsulotlar ventilatsiya teshiklarini to‘siq qo‘ymaganini tekshiring. • Mahsulotlarni shunday joylangki, bo‘lmada maksimal ventilyatsiya ta‘minlansin. • Eshik oxirigacha yopilganmi?
Jihozning ichki devorlari va sabzavotlar atrofida bug‘ hosil bo‘lyapti.	<ul style="list-style-type: none"> • Tarkibida suv miqdori yuqori bo‘lgan mahsulotlar ochiq holatda va yuqori namlik darajasi sharoitida saqlanmoqda yoki eshik uzoq vaqt ochiq holatda qoldirilgan. • Mahsulotlarni qopqoqli idishda yoki germetik konteynerlarda saqlang



Hurmatli xaridor (ISTE'MOLCHI), mahsulotda biror bir kamchilik, shikastlanish yoki nosozlik mavjudligini kafolat muddati davomida yoki undan keyin aniqlasangiz qisqa muddat ichida vakolatli servis markaziga murojaat eting yohud kafolat talonida ko'rsatib o'tilgan telefon raqamiga qo'ng'iroq qiling. Servis markaziga murojaat qilishda sovutgich modeli va seriya raqamini taqdim qiling.

Utilizatsiya

Sovutgichni qadoqlashda foydalaniladigan materiallar, ikkilamchi xom-ashyolarni qabul qilish punktlariga topshirilsa, ularni qayta ishlash va undan yana foydalanish mumkin.



DIQQAT! Bolalarning qadoqlash materiallari bilan o'ynashlariga yo'l qo'ymang, aks holda qadoqlash plyonkalarini chigallashtirish yoki karton quti ichiga tushib ketish natijasida bo'g'ilib qolish xavfi mavjud.

Utilizatsiya qilinishi lozim bo'lgan sovutgichni, mamlakat qonunchiligiga muvofiq holda utilizatsiya qilish va tarmoq shnurini uzib yaroqsiz holga keltirish kerak.

Sovutish tizimida mavjud bo'lgan R600a xladagenti esa mutaxassis tomonidan utilizatsiya qilinishi kerak. Sovutish tizimi quvurlari utilizatsiya qilingunga qadar shikastlanmaganligini tekshirish va bunga e'tiborli bo'lish lozim.

Hurmatli xaridor!

«ARTEL» savdo belgisi Sizning tanlovingiz uchun minnatdorchilik bildiradi hamda foydalanish qoidalariga rioya etilganda mazkur mahsulotning yuqori sifat bilan nuqsonsiz ishlashiga kafolat beradi.

Eshiklar ochilish holatini qarama-qarshi holatga o'zgartirish

Sovutgich eshigi holatini qarama-qarshi holatga o'zgartirishda oldin qurilmaning manbaga ulash vilkasini uzib qoying. Eshiklarining ochilish tomonini o'zgartirish ishlarini faqat **Artel** kompaniyasining servis markazi tomonidan bajarilishini tavsiya etadi. U to'lov asosida va mijoz hisobidan amalga oshiriladi.

Eshiklarni ochilish tomonini o'zgartirishga qilingan harakat bilan yetkazilgan har qanday zarar qurilma ishlab chiqaruvchisining kafolati bilan qoplanmaydi. Ushbu sabab bo'yicha talab etiladigan har qanday ta'mirlash ishlari to'lov asosida mijozlarning hisobidan amalga oshiriladi.

Sovutgich eshigining ochilish tomonini o'zgartirish oldindan sovutgich asosiy elektr energiyasi manbaidan uzib qo'yilganiga va sovutgichning ichidan barcha mahsulotlar chiqarib olinganiga ishonch hosil qiling.

Agar mijoz foydalanuvchi uchun qo'llanmadagi yo'riqnomani bajara olmasligini his qilsa, ushbu o'zgarishni amalga oshirish uchun Artel kompaniyasining malakali mutaxassisiga murojaat qilish kerak.

Eshikning ochilish tomoni o'zgarganidan so'ng sovutgichni darrov manbaga ulamang, bir soatdan kamroq vaqt kutib turing.


Eshiklar ochilish holatini qarama-qarshi holatga o'zgartirish 1- ilova

HD-430RWENS**, HD-455RWENS** modellari uchun


1. Simlarning himoyasini (1) va eshik qopqog'ini (2) olib tashlang.



2. Ilgakni kiritish uchun quyidagi suratlarda ko'rsatilganiday halqa qopqog'ini yechib oling.




3. Simlarni bir-biridan ajratib oling (eshigi displeyli modellar uchun). Keyin yuqori tirkakni 2 ta vintini otvertka yordamida bo'shatib va tirkakni echib oling. Eshik og'ir, shu bois eshikni yechib olayotganda jarohatlanmaslik uchun e'tiborli bo'ling.




4. Sovutgich eshigini vertikal tarzda tepaga sekin ko'targan holda o'rta tirkakdan echib oling.

Eshik og'ir, shu bois eshikni yechib olayotganda jarohatlanmaslik uchun e'tiborli bo'ling.




5. O'rta tirkakni 3 ta vintini xochoşimon otvyortka yordamida bo'shatib turib o'rta tirkakni qismlarga ajratib.



6. Muzlatish kamerasining eshigini vertikal tarzda tepaga asta ko'targan holda uni pastki tirkakdan echib oling. Eshik og'ir, shu bois eshikni yechib olayotganda jarohatlanmaslik uchun e'tiborli bo'ling.





7. Sovutgichni ehtiyotkorlik bilan yotqizib. Oyoqchasini (1) va tirgakni (2) yeching

oldin



keyin



8. Sovutgichning pastki o‘ng tomonidagi vintni (1) va muzlatish kamerasining eshigini yechib oling. Avtomat richag tutashtiruvchining (2) holatini o‘ng tomondan chap tomonga almashtiring.




9. O‘rta tirgakni otvertka yordamida o‘rnatib. Oldin muzlatish kamerasining eshigini va o‘rta tirgakni yig‘ing. Keyin pastki tirgak va sovutgich eshigini yig‘ing. Bunda to‘plamdagi tirgakni yuqori holatda joylashtiring.

Eshiklarni yig‘ish jarayoni.

O‘rta tirgak → Muzlatish kamerasining eshigi → Pastki tirgak → Sovutgich eshigi va to‘plamdagi tirgak yuqori holatda.

Ish paytida jarohatlanmaslik uchun ehtiyot bo‘ling



10. Pastki tirgakni va oyoqchanning holatini almashtiring (O‘ngdan → Chapga). Muzlatish kamerasining eshigini o‘rta tirgakka o‘rnatgandan keyin pastki tirgakni yig‘ing.

Yo‘naltiruvchining avtomat tutashtiruvchisini va tirgak o‘qini (1) yechib oling.

Tirgak o‘qini va yo‘naltiruvchisining avtomat tutashtiruvchisini ushbu suratda ko‘rsatilganiday qilib o‘rnatib.



Boshqaruv pultining qopqog‘idan (3) boshqaruv pulti qoplamasini (2) suratda ko‘rsatilganiday qilib yechib oling.



11. Boshqaruv pultining qoplamasini (1) yechib olgandan keyin simlar eshikchasining yo‘nalishini (2) sovutgich eshigidagi qarama-qarshi yo‘nalishda almashtiring (faqat displeyli model uchun). Boshqaruv qopqog‘ini suratda (3) ko‘rsatilganiday qilib vint (A) yordamida to‘plang.



12. Tapa tirgakni o'qini olish uchun 12mm lik gayka kalitidan foydalaning.




13. Tirgishni biroz kattalashtirish uchun tapa tirgakni kiriting, keyin sovutgichni yig'ish uchun tapa tirgakni olib tashlang.

Tapa tirgakni yig'ish


- Sovutgich eshigiga tapa tirgakni o'rnatib.
- O'rta tirgakni sovutgichning eshigiga o'rnatib.
- Tapa tirgakni tapa plangkaga o'rnatib.
- Vintni qotirib.



14. Simni ulang va uni boshqaruv simni tirgak qopqog'iga o'rnatib, keyin quyidagi suratda ko'rsatilganidey birlashtirilishini ta'minlagan holda fiksatorni aylantiring.




15. Halqa qopqog'ini o'rnatib, bunda uning holatini halqa bo'ylab markazlashtiring.



16. Simlar eshikchasining yo'nalishini qarama-qarshi yo'nalishga o'zgartirib va eshik qopqog'ini yig'ing.

HD-360FWEN, HD-395FWEN modellari uchun

1. Sovutgichning yuqori tirgak qopqog‘ini echish uchun vintni xochsimon (+) otvyortka yordamida bo‘shating va qopqoqni echib oling.



2. Keyin yuqori tirgakning 3 ta vintini xochsimon (+) otvyortka yordamida bo‘shating va yuqori tirgakni yechib oling.




3. Muzlatgich kamerasi eshigini vertikal tarzda tepaga sekin ko‘targan holda o‘rta tirgaktan echib oling.




ESLATMA:

Eshik og‘ir, shu bois eshikni yechib olayotganda jarohatlanmaslik uchun e‘tiborli bo‘ling.

4. Chap tarafdagi plastmassali qopqog‘ yassi kallakli (-) otvyortka yordamida rasmda ko‘rsatilgandek astalik bilan qopqoqni yechib oling.



5. O‘rta tirgakni 3 ta vintini xochsimon otvyortka yordamida bo‘shatib turib o‘rta tirgakni qismlarga ajratring.




6. Sovutgich kamerasining eshigini vertikal tarzda tepaga asta ko‘targan holda uni pastki tirgaktan echib oling.



ESLATMA:

Eshik og‘ir, shu bois eshikni yechib olayotganda jarohatlanmaslik uchun e‘tiborli bo‘ling.

7. Sovutgichni ehtiyotkorlik bilan yotqizing. Oyoqchasini (1) va tirgakni (2) yeching



8. Pastki tirgak va oyoqchasining holatini almashtiring (o'ng-chap).



9. Yo'naltiruvchi avtomat tutashtiruvchisini va tirgak o'qini. Tirkak o'qini va yo'naltiruvchining avtomat tutashtiruvchisini ushbu suratda ko'rsatilganiday qilib o'rnatning.



10. Sovutgichning pastki o'ng tomondagi vintni (1) va muzlatish kamerasining eshigini yechib oling. Avtomat richag tutashtiruvchining (2) holatini o'ng tomondan chap tomonga almashtiring.

oldin




keyin




11. O'rtga tirgakni o'tvertka yordamida o'rnatning. Oldin sovutish kamerasining eshigini va o'rtga tirgakni yig'ing.



12. Tapa tirgakni o'qini ajratib olish uchun 10 mm lik gaykali kalitidan foydalaning.




13. Sovutgich kamerasi eshigini pastki tirgakka o'rnatning. Keyin o'rtga tirgakni vintlar bilan qotiring.



ESLATMA:

Eshik og'ir, shu bois eshikni o'rnatayotganda jarohatlanmaslik uchun e'tiborli bo'ling.


14. Muzlatgich kamerasi eshigini o'rtga tirgakka o'rnatish.



15. Tepa tirgakni 3 ta vint bilan otvyortka yordamida sovutgichning tepa qismiga oqotiring. Oldin sovutish kamerasining eshigini va o'rtga tirgakni yig'iting.



16. Sovutgichning yuqori tirgak qopqog'ini tirgakka o'rnatish va vint bilan xochsimon (+) otvyortka yordamida qopqoqni qotirish.



17. Chap tarafdagi plastmassali qopqoq yassi kallakli (-) otvyotrika yordamida rasmda ko'rsatilgandek astalik bilan qopqoqni yechib oling.





Ishonchli va barakali ™